

“YOSH LAR VA AYOLLAR” DAFTARIGA KIRITILGAN FUQAROLAR BILAN NAVBATDAGI SAYYOR QABUL BO’LIB O’TDI



“YOSH LAR VA AYOLLAR” DAFTARIGA KIRITILGAN FUQAROLAR BILAN NAVBATDAGI SAYYOR QABUL BO’LIB O’TDI

Xabaringiz bor, hozirgi vaqtda "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ni shakllantirish bo'yicha xatlov ishlari amalga oshirilmoqda. Mahallalarda tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan har bir xonadonga borilib, yoshlar va ayollarning muammolari belgilangan so'rovnoma shakli to'ldirilib, sektor shtablarida umumlashtirilmoqda.

Bugun, 4 noyabr kuni Termiz shahar hokimi, 1-sektor rahbari Isroil Xudoyberdiev "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolar bilan sayyor qabul o'tkazdi. Mutasaddi tashkilotlar rahbarlari bilan ular o'rta tashlagan masalalarni hal etish choralari ko'rildi.

Sayyor qabulda, shahar hokimligining barcha mutaxassislari, ishchi guruhi a'zolari, tashkilot rahbarlari bevosita ishtirok etishdi, ushbu qabulda fuqarolarni qiynab kelayotgan kommunal xizmati, yo'l va ichimlik suvi, uy-joy, ishga joylashish va davolanish masalalari borasidagi murojaatlari atroflicha ko'rib chiqildi.

Sayyor qabulga kelgan 40 nafarga yaqin fuqaro Shahar hokimi tomonidan o'zlarining hayotiy muammolariga yechim topdilar hamda tushuntirish va ko'rsatmalar oldilar.